

SHARQ UYG‘ONISH DAVRIDA TA’LIM VA TARBIYA TARAQQIYOTI

Jo'raqulova Gulnoza

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sharq Uyg‘onish davrida ta’lim va tarbiya tizimini shakllanishi, rivojlanishi hamda ilmiy-pedagogik fikrlar taraqqiyoti yoritiladi. Maktab va madrasalarning tashkil topishi, ilmiy markazlar faoliyati, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi mutafakkirlarning tarbiyaga doir qarashlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim, tarbiya, maktab, madrasa, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, pedagogika, axloqiy tarbiya, ilmiy markazlar, Bayt ul-hikma, komil inson.*

Аннотация. *В статье рассматривается становление и развитие системы образования и воспитания, а также развитие научно-педагогических идей в эпоху Восточного Возрождения. Анализируются создание школ и медресе, деятельность научных центров, а также взгляды на воспитание таких мыслителей, как аль-Фараби, Ибн Сина и аль-Бируни.*

Ключевые слова: *Образование, воспитание, школа, медресе, Аль-Фараби, Ибн Сина, Аль-Бируни, педагогика, нравственное воспитание, научные центры, Байт-уль-хикма, совершенный человек.*

Abstract. *This article examines the formation and development of the education and upbringing system, as well as the development of scientific and pedagogical ideas during the Eastern Renaissance. The establishment of schools and madrasas, the activities of scientific centers, and the views on upbringing of thinkers such as Al-Farabi, Ibn Sina, and Al-Biruni are analyzed.*

Keywords: *Education, upbringing, school, madrassas, Al-Farabi, Ibn Sina, Al-Biruni, pedagogy, moral education, scientific centers, Bayt al-Hikma, the perfect man*

KIRISH

Sharq Uyg‘onish davri — insoniyat tarixidagi eng yorqin madaniy-ma’rifiy yuksalish bosqichlaridan biridir. IX–XII asrlarda Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq hududlarida ilm-fan, ta’lim, madaniyat va tarbiya tizimi jadal rivojlandi. Bag‘dod, Buxoro, Xorazm, Marv, Samarqanddagi ilmiy maktablar jahon ilm-faniga ulkan hissa qo‘shdi. Bu davrning pedagogik merosi nafaqat Sharq mamlakatlarining, balki butun dunyo ta’lim tizimlarining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, tarbiyaning mazmuni va metodlariga bo‘lgan yondashuv bu davr pedagogikasining asosiy xususiyatlaridan biri bo‘ldi.



Sharq Uyg'onish davrda ta'lim asosan madrasalar, maktablar, kutubxonalar va ilmiy markazlar orqali amalga oshirilgan. Mazkur davrda ta'limning boshlang'ich bosqichi maktablar orqali amalga oshirildi. Bu maktablarda o'qish, yozish, hisob-kitob, adab, odob qoidalari o'rgatildi. O'qitish jarayonida og'zaki bayon, amaliy mashqlar, misollar orqali tushuntirish usullari qo'llanilgan. Maktablar nafaqat savod chiqarish joyi, balki axloqiy tarbiya maskani sifatida ham faoliyat yuritgan. Madrasa — Sharqdagi eng muhim ta'lim muassasalaridan biri bo'lib, o'rta va oliy ta'lim vazifasini bajargan. Ularda diniy fanlar bilan birga matematika, astronomiya, tibbiyot, falsafa, mantiq kabi dunyoviy fanlar ham o'qitilgan. Madrasalarda ilmiy anjumanlar, munozaralar, yozma ishlar orqali pedagogik tajriba boyitilgan. Buyuk olimlarning aksariyati aynan ushbu madrasalarda yetishib chiqqan. Uyg'onish davri ta'limining yuksalishida kutubxonalar va ilmiy markazlar katta rol o'ynagan. Bag'doddagi “Bayt ul-hikma”, Buxoro va Xorazmdagi saroy kutubxonalari olimlarning ilmiy faoliyat yuritishiga imkon yaratgan. Bu markazlarda tarjima ishlari yo'lga qo'yilib, yunon, hind, eron, arab tillaridagi ilmiy manbalar o'zaro muomala qilgan. Sharq Uyg'onish davrining buyuk allomalari ta'lim va tarbiya tizimining shakllanishida muhim o'rin tutdi. Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar ilm-fanning rivoji bilan birga, inson kamoloti, axloq, odob-axloq me'yorlari haqida ham chuqur fikrlar ilgari surishgan.

Abu Nasr Forobiy - tarbiyani jamiyatning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlovchi bosh omil deb hisoblagan. Uning fikricha, ta'lim faqat bilim berish emas, balki insonni barkamol qilish jarayonidir. U “Fozil odamlar shahri” asarida fazilatli inson tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti ekanini ta'kidlaydi.

Abu Ali Ibn Sino - ta'lim jarayonini bolalarning yosh xususiyatlari va psixologik holatiga mos ravishda tashkil etish zarurligini ta'kidlagan. Uning fikricha, jismoniy tarbiya, gigiyena, mehnat, aqliy mashqlar bir-biri bilan uyg'un bo'lishi kerak. U tarbiyada shaxsga individual yondashuvni ilgari surgan.

Al-Xorazmiy - ilmiy fikrlash, mantiqiy tahlil ko'nikmasining tarbiyadagi o'rnini belgilagan. Xorazmiy tomonidan algebra fani mustaqil yo'nalish sifatida shakllantirilgani ta'lim tarixidagi eng muhim hodisalardan biridir. Uning “Al-jabr va al-muqobala” asari o'rta asrlardagi barcha madrasalarda matematika o'qitilishining asosiy manbai bo'lib xizmat qilgan. Bu asar orqali murakkab hisoblash usullari, tenglamalar yechimi va matematik fikrlashning mantiqiy asoslari yosh avlodga o'rgatilgan.



Alisher Navoiy - Shoirning “Mahbub ul-qulub”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Hayrat ul-abror” kabi asarlarida pedagogik qarashlar chuqur aks etgan. Navoiy ilmning ahamiyatini yuksak baholab, har bir inson ilmli bo‘lishi kerakligini uqtiradi. Uning fikricha, ilm — insonni yuksaltiruvchi, jamiyatni esa taraqqiyotga yetaklovchi kuchdir. Shu tufayli u o‘z asarlari orqali o‘quvchilarda yuksak axloqiy sifatlar, zakovat va tafakkur kengligini tarbiyalashga intilgan. Navoiy o‘z davrida maktablar, madrasalar, kutubxonalar, xonaqohlar va ko‘plab ilm-ma’rifat maskanlarini barpo ettirishga homiylik qilgan. Bu esa ta’lim tizimining rivojlanishiga, yoshlarning ilm olish imkoniyatlarining kengayishiga katta zamin yaratgan.

Bu mutafakkirlarning qarashlari umumiy sharqona pedagogikaning metodologik asosini shakllantirgan. Ta’lim va tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligi. Sharq Uyg‘onish davri pedagogikasining eng muhim xususiyati — ta’lim va tarbiyaning ajralmas birlikda talqin qilinganidir. Bu yondashuv bugungi zamonaviy pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib qolmoqda. Sharq Uyg‘onish davri ta’lim va tarbiya taraqqiyotining yuksak bosqichi bo‘lib, bu davrda shakllangan ilmiy maktablar, pedagogik qarashlar va tarbiyaviy yondashuvlar bugungi ta’lim tizimi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Allomalar ilmiy tafakkur bilan birga axloqiy poklik, mehnatsevarlik, halollik, ilmga chanqoqlik kabi fazilatlarni ustuvor deb bilganlar. Ularning pedagogik merosi yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda bebaho manbadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Forobiy A. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2000.
2. Ibn Sino Abu Ali. Donishnoma. – Toshkent: “Fan”, 1998.
3. Beruniy A. R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. — Toshkent: “Fan”, 1990.
4. Al-Xorazmiy M. Al-jabr va al-muqobala. – Toshkent: “Fan”, 1989.
5. Imom al-Buxoriy. Al-Jomi’ as-sahih. – Toshkent: “Movarounnahr”, 1999.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.
7. Qodirov R. Pedagogika tarixi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2012.
8. Jalolov J. Sharq Uyg‘onish davri allomalari va ularning ilmiy merosi. – Buxoro: “Buxoro”, 2016.

